



TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON TA'LIMNI JORIY ETISH MARKAZI

BUYRUQ

Toshkent shahri

№ 42-K/1

"18" 10 2021 y.

Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar xarid qilish bo'yicha tanlov komissiyasi tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazi tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni ta'minlash maqsadida tanlov komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tanlov savdolari O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 30 iyuldagi 473-son qarori hamda Adliya vazirligidan 26.05.2018 yilda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi nizom" talablari asosida olib borilishi ta'minlansin.

3. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Markaz direktorining 2019yil 2 apreldagi 12/1-K-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A.Abdullayev

Markazning 2021 yil
18 oktabr "dagi
41-n/1-son buyrug'iga ilova

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni
ta'minlash maqsadida tanlov komissiyasi**

TARKIBI

1.	A. Abdullayev	komissiya raisi	Markaz direktori
2.	R. Ruziyev	komissiya a'zosi	bosh hisobchi
3.	A. Ziyakulov	komissiya a'zosi	bo'limi boshlig'i
4.	A. Arzimatov	komissiya a'zosi	xo'jalik ishlari mudiri
5.	R. Iskandarov	komissiya a'zosi	bo'limi boshlig'i
6.	F. Latifov	komissiya a'zosi	bo'limi boshlig'i

*Izoh: Komissiya a'zolari o'zgargan taqdirda ularning o'rniga tayinlangan
xodim komissiya a'zosi hisoblanadi.*